Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining

2023 yildagi faoliyati to‘g‘risida

MA’LUMOT

I. Tashkiliy–huquqiy asoslarni takomillashtirish sohasida

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **4 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tegishli tartibda qabul qilindi.

– Yangi tahrirdagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining** (30.04.2023) **4 ta** moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli normalar aks ettirildi. Jumladan,

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi har yilgi **milliy ma’ruzani eshitish** (93-modda);

– Senat tomonidan respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining **rahbarini saylash** (93-modda);

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining **rahbarligiga nomzod taqdim etish** (93-modda);

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyatida **korrupsiya holatlariga qarshi kurashish** chora-tadbirlarni amalga oshirish (93-modda).

1 ta O‘zbekiston Respublikasi qonuni

“Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–860-son Qonun *(2023 yil 8 avgust);*

Qonunga muvofiq, Agentlikning normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazishdagi vakolatlari, shuningdek, davlat organlari tomonidan korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini monitoring qilish tartibi hamda normativ-huquqiy hujjatlardagi va ularning loyihalaridagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar belgilandi.

1 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-son Farmon *(2023 yil 27 noyabr);*

Unda: *Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturini tasdiqlandi, Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati kengaytirildi.*

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga «Qayta aloqaning sirli mijozi» tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish vazifasi yuklatildi.

1 ta Idoraviy normativ-huquqiy hujjat:

“Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 54-sonli Buyrug‘i (3425-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) *(2023 yil 13 mart).*

Unda: *davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg‘a olinishi bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solindi, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi xizmat safarlari va xalqaro tadbirlarda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda sovg‘a olish tartibi belgilandi.*

II. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bilan bog‘liq tahliliy faoliyat

Davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida **korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan omillarni** aniqlash va tahlil qilish maqsadida o‘rganishlar olib borilib, natijalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va boshqa tashkilotlarga **50 ta** tahliliy ma’lumot kiritildi.

Quyidagi sohalarda korrupsiya omillari tahlil qilinib ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi:

– **davlat xaridlari sohasida**: shartnomalarni G‘aznachilik organlaridan ro‘yxatdan o‘tkazmasdan korrupsiyaga shart-sharoit yaratilayotgan holatlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki tender savdolarini o‘tkazmasdan davlat xaridlarini amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlari hamda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortish bo‘yicha sud amaliyotidagi muammolar tahlili;

– **Ta’lim sohasida:** nodavlat oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish faoliyatini litsenziyalash bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, maktabgacha va maktab ta’limi hamda oliy ta’lim sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlili;

– **Energetika sohasida:** aholini elektr energiyasi va gaz bilan ta’minlashdagi mavjud korrupsiyaviy omillar va xavf-xatarlar, shuningdek Avtomobillarga gaz to‘ldirish shahobchalariga tabiiy gaz yetkazib berish va ular faoliyatini nazorat qilish jarayonidagi korrupsiyaviy omillar tahlili;

– **Ijtimoiy sohada:** Respublikada kam ta’minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlanishi va to‘lanishidagi korrupsion xavf-xatarlar tahlili;

– **Yer ajratish sohasida:** yer to‘g‘risidagi qonunbuzilishi holatlari, ularning sabab va shart-sharoitlari tahlili;

– **Davlat organlari ochiqlik sohasi**: xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan kredit mablag‘laridan foydalanish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, shuningdek davlat idoralarining ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etish holati bo‘yicha tahlil;

– **Boshqa sohalar:** Qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, hamda Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi mavjud korrupsiyaviy omillar tahlili.

II. Murojaatlar bilan ishlash yo‘nalishida

Agentlikka **2023 yilda** jami **3 545 ta** murojaat kelib tushgan. Ko‘rib chiqilgan murojaatlarning **91 tasi** ijobiy hal etilgan, shundan **5 tasining** ijobiy yechimi yuzasidan

Agentlikka tashakkurnoma bildirilgan, **1 022 ta** murojaatga huquqiy maslahat va tushuntirishlar berish orqali qanoatlantirilgan, **27 ta** murojaat anonim deb topilgan, **302 ta** takroriy murojaat ko‘rib chiqilishi belgilangan tartibda tugatilgan, **8 ta** murojaat ma’lumot uchun qabul qilingan, **2 063 ta** murojaat taalluqliligi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga yo‘naltirilgan bo‘lib, hozirda **32 ta** murojaat ko‘rib chiqilmoqda.

Kelib tushgan murojaatlarning **3 193 tasi** jismoniy shaxslardan, **352 tasi** yuridik shaxslardan, **944 tasi** yozma, **2 251 tasi** elektron, **350 tasi** Call markaz orqali og‘zaki ko‘rinishda kelib tushgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarga, viloyat (tuman, shahar) hokimliklariga **51 ta so‘rovnoma** yuborilgan, qonunbuzish holatlarini bartaraf etish yuzasidan **34 ta taqdimnoma** kiritilgan.

Murojaatlarni o‘rganish natijasiga ko‘ra, **8 nafar** shaxs **intizomiy javobgarlikka** tortilgan, shundan **1 nafar** davlat idorasi xodimi bilan **mehnat shartnomasi bekor qilingan**, **19 ta** qabul qilingan qaror bekor qilingan, **6 ta jinoyat ishi**, **3 ta ma’muriy ish** qo‘zg‘atilgan va mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilgan.

Agentlikka kelib tushayotgan murojaatlarning soni ko‘payishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2023 yilda Agentlikka kelib tushgan **3 545 ta** murojaatlarni 2022 yilda kelib tushgan **2 234 ta** murojaatlarga nisbatan solishtirganda, murojaatlar salmog‘i **58,7 foizga** oshgan.

Agentlikka kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyatida sud-huquq sohasidagi muammolar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va turli sohalarda korrupsiyaviy holatlarning yuz berayotganligi to‘g‘risida yozilgan murojaatlardan iborat.

Jumladan, **2023 yilda** Agentlikka qo‘yidagi soha va yo‘nalishlar bo‘yicha murojaatlar kelib tushdi:

- ta’lim sohasi xodimlarining xatti-harakatlari va sohadagi qonunbuzilish holatlari bo‘yicha **511 ta** (15,5%),
- sud qarorlaridan norozиliklar **406 ta** (11,4%);
- davlat xaridlari va tender savdolari jarayonidagi qonunbuzilish holatlari bo‘yicha **301 ta** (8,4%);
- ichki ishlar organlari xodimlarining xatti-harakatlari va qarorlaridan norozиliklar **281 ta** (7,9%);
- prokuratura organlari qarorlaridan norozиliklar va prokuratura organlariga qilingan murojaatlar hal bo‘lmayotganligi bo‘yicha **187 ta** (5,2%);
- mahalliy hokimlik xodimlari va mansabdor shaxslarining noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlaridan norozиliklar **165 ta** (4,6%);
- majburiy ijro byurosi xodimlarining xatti-harakatlari va ijro hujjatlarning bajarilmayotganligi bo‘yicha **146 ta** (4,1%);
- yer masalasida **135 ta** (3,8%);
- kompensatsiya, pensiya, subsidiya, ijtimoiy himoya va moddiy yordam masalasida **126 ta** (5,5%);
- sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunbuzilish holatlari va tibbiyot xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan **90 ta** (2,5%);

- firibgarlik jinoyatlari yuzasidan **87 ta** (2,4%);
- kredit masalasida va bank xodimlari xatti-harakatidan noroziliklar **82 ta** (2,3%)**;**
- gaz-elektr masalasida **77 ta** (2,2%);
- mehnat munosabatlari va ish haqi undirish yuzasidan **73 ta** (2,1%);
- mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari va xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan **66 ta** (1,9%)
- noqonuniy qurilish va qurilish masalasida **65 ta** (1,8%).

Kelib tushgan murojaatlarning hududlar kesimida:
Toshkent shahar bo‘yicha **923 ta**;
Qashqadaryo viloyati bo‘yicha **399 ta**;
Navoiy viloyati bo‘yicha **368 ta**;
Toshkent viloyati bo‘yicha **325 ta**;
Samarqand viloyati bo‘yicha **306 ta**;
Surxondaryo viloyati bo‘yicha **290 ta**;
Jizzax viloyati bo‘yicha **154 ta**;
Farg‘ona viloyati bo‘yicha **149 ta**;
Xorazm viloyati bo‘yicha **137 ta**;
Namangan viloyati bo‘yicha **137 ta**;
Buxoro viloyati bo‘yicha **127 ta**;
Andijon viloyati bo‘yicha **105 ta**;
Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha **76 ta**;
Sirdaryo viloyati bo‘yicha **43 ta**;
Chet eldan **6 ta** murojaat kelib tushgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan murojaatlar bilan ishlash borasidagi amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar aholi **muammolarining yechimi topilishiga xizmat qilmoqda** hamda murojaatlarda ko‘rsatib o‘tilayotgan korrupsiyaviy holatlarni keltirib chiqarayotgan omillarni tahlil qilgan holda ularni bartaraf qilish uchun tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishiga zamin yaratmoqda.

III. Agentlik tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar

Agentlik tomonidan davlat xaridlaridagi qonun buzilish holatlari, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish yo‘nalishlarida muntazam ravishda o‘rganish amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘rganishlar natijasida aniqlangan qonunbuzilishlarni bartaraf etish yuzasidan vazirlik va idoralarga **225 ta taqdimnoma**, javobgarlik masalasini hal qilish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **227 ta so‘rovnoma** yuborildi.

Yuborilgan so‘rovnomalar asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan umumiy **23 ta jinoyat ishi** va **96 ta ma’muriy ishlar qo‘zg‘atildi, 74 nafar** shaxs **intizomiy** javobgarlikka tortildi.

Davlat xaridlari sohada o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasida yuzasidan:
Vazirlik idoralarga **178 ta** *(136 mlrd so‘mlik)* taqdimnoma;
Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasiga **57 ta** *(40 mlrd so‘mlik)* so‘rovnoma;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **127 ta** *(232,5 mlrd so‘mlik)* so‘rovnoma yuborildi.

O‘z navbatida vazirlik va idoralarga kiritilgan taqdimnomalar natijasida, buyurtmachilar tomonidan **138 ta** holatda jami **110 mlrd** so‘mlik davlat xaridlarida yo‘l qo‘yilgan qonunbuzilishlari bartaraf etilib, davlat xaridlari bekor qilingan.

Yuborilgan so‘rovnomalar asosida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksni tegishli moddalari bilan **30,2 mlrd.** so‘mlik davlat xaridlari yuzasidan **42 ta** ma’muriy ishlar hamda Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan **6 ta** jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan hamda **1 ta** intizomiy jazo chora qo‘llanilgan.

Davlat xaridlari bo‘yicha qonunbuzilishi holatlari asosan davlat buyurtmachilari tomonidan **manfaatlar to‘qnashuvi**ga yo‘l qo‘yish, **affillanganlik** holati, **raqobatni cheklovchi shartlar**ni kiritish hamda xarid komissiyasi a’zolari tomonidan **ovozlarni soxtalashtirish** (bitta IP-adresda ovoz berish) bilan bog‘liq holda sodir etilganligi aniqlandi.

OAVlari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqayotgan korrupsiya bilan bog‘liq barcha ma’lumot va xabarlar doimiy o‘rganilib, natijasi Agentlik rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilindi.

Misol uchun, OAVlarda muhokamalarga sabab bo‘lgan, Qarshi shahri hokimining o‘zini rag‘batlantirish uchun mablag‘ ajratish haqidagi noqonuniy chiqarilgan qarori Agentlik tomonidan o‘rganilib, kiritilgan taqdimnomaga asosan Qashqadaryo viloyati hokimligi tomonidan bekor qilingan.

Yoki Qumqo‘rg‘on tumani hokimligiga tadbirkor tomonidan sovg‘a qilgan avtomobilni hokimlik balansiga olish to‘g‘risidagi farmoyishning qonuniyligi o‘rganilganda sovg‘a qilingan avtomobil narxi hukumat qarorida belgilangan meyorlardan yuqori bo‘lganligi sababli avtomobil tadbirkorga qaytarilishi ta’minlangan.

Bundan ташқари, “**Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”**gi Qonuni va “**Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining** namunaviy qoidalari”da davlat xizmatchilariga **tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan.**

Agentlik tomonidan ochiq ma’lumotlar asosida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rahbarlari va o‘rinbosarlari darajasida o‘rganilganda, **15 nafar** mansabdor shaxslarning **20 ta** tadbirkorlik subyektida ta’sischi yoki rahbarlik faoliyati bilan shug‘ullanayotganligi aniqlandi.

Mazkur holatlar yuzasidan vazirlik va idoralarga **taqdimnomalar** kiritildi hamda davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlariga chek qo‘yish bo‘yicha choralar ko‘rildi.

IV. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimining joriy qilish yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi PF-14-son Farmoniga asosan, amalga oshirilgan ma’muriy islohotlardan so‘ng **90 ta** davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Agentlik tomonidan **27 ta vazirlik** va **idoralarda** hamda **mahalliy hokimliklarda** ichki nazorat tizimi faoliyatining yo‘lga qo‘yilganlik holati joyiga chiqqan holda o‘rganildi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, vazirlik va idoralarga ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan **9 ta taqdimnoma** kiritildi, **1 ta** ogohlantirish yuborildi.

30 ta davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari **ochiq tanlov** asosida ishga qabul qilinishi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** amalga oshirildi. Unda **62 ta davlat tashkilotining** faoliyati baholandi.

*Ma’lumot uchun: Baholash natijalariga ko‘ra, **62 ta** davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, **12 ta** tashkilot faoliyat samaradorligi **“yaxshi”** – (81-100 ball), **30 ta** tashkilot **“qoniqarli”** – (55-80 ball) va **20 ta** tashkilot **“qoniqarsiz”** – (55 balldan past) toifalarga ajratildi. Masalan, Surxondaryo viloyat hokimligi (11 ball), Suv xo‘jaligi vazirligi (13 ball) va Andijon viloyat hokimligi (18 ball) tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha umuman ishlar amalga oshirilmaganligi sababli baholash bo‘yicha **энг past** natijani qayd etdi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi **PQ-240-son qaroriga** muvofiq, davlat tashkilotlari faoliyatida **korrupsiyaviy xavf-xatarlar** aniqlanib, baholashdan o‘tkazildi.

2023 yilda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashdan o‘tkazish uchun **62 ta** davlat tashkilotlarining ro‘yxati shakllantirilib, shundan **39 ta** vazirlik va idoralar uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari shakllantirildi.

Baholash natijalariga ko‘ra, **39 ta** vazirlik va idoralarning umumiy **1701 ta** funksiyalari korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o‘tkazilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi **177 ta** funksiyalarda “yuqori”, **475 ta** funksiyalarda “o‘rta”, **1049 ta** funksiyalarda “past” baholandi.

Ichki nazorat tuzilmalari xodimlari malakasini oshirish maqsadida o‘quv seminarlari:

- 2023 yil **18 aprel kuni** davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas’ul xodimlari uchun “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi: 2022 yil natijalari tahlili va 2023 yilga mo‘ljallangan istiqboldagi rejalar” mavzusida onlayn shaklda o‘quv-seminar tashkil etildi.

- 2023 yil **3-4-avgust** kunlari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun xalqaro ekspertlar ishtirokida “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyani oldini olish va “komplayens-nazorat” tizimini samarali joriy etish” mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

- 2023 yil **24 avgust** “O‘zbekneftgaz” AJda Hisob palatasi билан hamkorlikda “Davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash amaliyoti” mavzusida seminar-tering o‘tkazildi, unda 33 davlat idorasidan 100 dan ortiq xodimlar ishtirok etdi;

- Yevropa Ittifoqi va Yevropa Kengashining “Markaziy Osiyo – huquq ustuvorligi: ochiqlik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashishda hamkorlik” (CA TAEC) dasturi bilan hamkorlikda Yevropaning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan xolda, joriy yilning **3-4-oktabr kunlari** korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun **“Korrupsiyaning**

oldini olish va halollikni targ‘ib qilish” mavzusida seminar-trening mashg‘ulotlari tashkil etildi.

Vazirlik va idoralarda Agentlik xodimlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashishni targ‘ib etishga qaratilgan **54 ta** seminar, davra suhbati va uchrashuvlar tashkil etildi.

Bugungi kunda **41 ta** davlat tashkiloti **“Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”** bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatiga ega bo‘ldi.

VI. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash yo‘nalishida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-son Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati kengaytirilib, **“Haj” tadbiriga** borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati, bolalarni **davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga qabul qilish** uchun berilgan arizalar navbati (ro‘yxati), **bo‘sh ish o‘rinlari**, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar; **nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilgan grant** va ijtimoiy buyurtma loyihalari, shu jumladan, g‘olib bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlar e’lon qilish majburiyati belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmoniga muvofiq, 2022 yilda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlashdagi samaradorlik va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tahlil qilinib, maqsadli indikatorlar asosida baholangan **“Ochiqlik indeksi”** shakllantirildi.

Ochiqlik indeksini baholashda umumiy **86 ta** vazirlik, idora va muassasalarning ochiqlik faoliyati 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, unga ko‘ra **15 ta** davlat organining ochiqlikni ta’minlash faoliyati **“yashil”** – (71-100 ball), **44 ta** tashkilot **“sariq”** – (55-71 ball) va **27 ta** tashkilot **“qizil”** – (55 balldan past) toifalarga ajratildi.

Ochiqlik indeksida **“qizil”** (15 ta) va **“sariq”** (44 ta) toifada baholangan toifadagi davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha **chora-tadbir rejalari** ishlab chiqildi.

“Очиқлик индекси”ни баҳолаш тизими тўлиқ рақамлаштирилган ҳолда **“Open.index”** (https://index.anticorruption.uz/) platformasi orqali amalga oshirilib, keng jamoatchilikka sohadagi amalga oshirilgan ishlarning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi.

Ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning belgilangan axborot resurslarida o‘z vaqtida va to‘liq e’lon qilinishi ustidan doimiy **monitoring qilib** borildi.

93 ta vazirlik va idoralar rasmiy veb-saytlari monitoringdan o‘tkazilib, vazirlik va idoralarga ochiqlikni ta’minlash sohasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida **44 ta** taqdimnomalar yuborilishi ta’minlandi.

Natijada: vazirlik va idoralarning **16 nafar** mas’ul xodimlari intizomiy javobgarlikka tortilib, **7 nafari** ogohlantirildi, **5 nafari**ga “hayfsan” intizomiy jazosi qo‘llanildi hamda **4 nafari** bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Oliy Majlis Senati tomonidan berilgan topshiriqlar asosida **27 ta** vazirlik va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ochiqlikka oid qonun hujjatlari ijrosi o‘rganilib, ma’lumot taqdim etildi.

2023 yil davomida vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari o‘qitishga qaratilgan **10 ta** seminar-treninglar tashkil etilib, ularda **200 dan ortiq** sohaga mas’ul xodimlarning malakasi oshirildi.

Shuningdek, davlat idoralarining mas’ul xodimlarini o‘qitishni tizimli ravishda tashkil etish maqsadida **“E-learning”** ta’lim platformasi (https://data.anticorruption.uz/) ishlab chiqildi.

VII. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida

2023 yilda Xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish idoralari bilan hamkorlikka oid **4 ta** hamkorlik to‘g‘risida Memorandumlar va **2 ta** chora-tadbirlar rejasi imzolandi.

Xususan, , Qatar davlati ma’muriy nazorat va shaffoflik boshqarmasi, Qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurashish markazi, Koreyaning Korrupsiyaga qarshi kurash va fuqarolik huquqlari komissiyasi, Misr Arab Respublikasi Ma’muriy nazorat idorasi bilan Agentlik o‘rtasida o‘zaro hamkorlik **Memorandumlari** imzolandi.

Fransiya Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Tojikiston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati va korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o‘rtasida Memorandumni amalga oshirish bo‘yicha **Chora-tadbirlar rejasi** imzolandi.

Xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida **65 ta** uchrashuv, **9 ta** seminar-trening**, 4 ta** xalqaro tadbirlar (forum, konferensiya, marosim) **1 ta** o‘quv kurslari tashkil etildi. Ular qatorida:

1. “Davlat idoralari faoliyati ochiqligi bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari forumi” *(16-17 may Buxoro)*

***Unda**: Oliy Majlis palatalari, fuqarolik jamiyati institutlari, mas’ul davlat idoralari vakillari, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston davlatlari hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Elektron hukumat akademiyasi (Estoniya), “Mintaqaviy muloqot” XNT, “Ochiq ma’lumotlar xartiyasi” kabi xalqaro tashkilotlarning **20 ga** yaqin ekspertlari ishtirok etdi.*

Tadbirda davlat idoralari faoliyati ochiqligining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi roli, ochiq ma’lumotlar ekotizimini yaratishning dolzarb masalalari, ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik mexanizmlari muhokama qilindi.

2. Markaziy Osiyoda BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining amalga oshirilishini jadallashtirish bo‘yicha Mintaqaviy konferensiya *(2 noyabr Toshkent)*

*Unda, **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Mintaqaviy platforma** ishga tushirildi.*

3. «III Toshkent xalqaro aksilkorrupsiya forumi» *(2 noyabr Toshkent)*

Unda, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Amerika Qo‘shma Shtatlarining Davlat departamenti Giyohvand moddalarni nazorat qilish va huquqni muhofaza qilish

byurosi, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha Germaniya jamiyati, “Mintaqaviy Muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti hamkorligida tashkil etildi.

Unda Janubiy Koreya, Qatar, Malayziya, Estoniya, Finlyandiya, Latviya, Gonkong hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul idoralari rahbarlari hamda xalqaro tashkilotlarning yetakchi ekspertlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, vazirlik hamda idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV vakillari ishtirok etdi.

4. Qatar amiri tomonidan ta’sis etilgan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish”** marosimi *(19 dekabr Toshkent)*

Unda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyeyov hamda Qatar Davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy, shuningdek, bir qator xorijiy davlatlardan oliy martabali mehmonlar ishtirok etdi.

Shuningdek, 2016-yildan buyon 5 ta nominatsiya bo‘yicha g‘olib deb topilgan 51 nafar mukofot sohiblari ilk bor O‘zbekistonda jam bo‘ldi.

5. Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yuksak mukofoti sohiblari ishtirokidagi **“Halollik chempionlari forumi”** *(20 dekabr Toshkent)*

Unda Korrupsiyaga nisbatan xalqaro nigoh, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy tashabbuslari, Yoshlar, akademik doiralar va ta’lim, Korrupsiya ortidagi haqiqatni aniqlash, Ta’lim va innovatsiyalar hamohangligi mavzusidagi panellarda taqdimot, ma’ruzalar va muhokamalar bo‘lib o‘tdi.

6. “Davlat organlarining shaffofligini ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda OAV va NNTlarning roli” mavzusida trening *(12 sentabr Toshkent)*

Treningda AQShning “Boston Globe” gazetasi muharriri Rashel Koyen ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarida jurnalistik surishtiruvning o‘rni, OAV va internet orqali korrupsiyaning oldini olish va halollikni shakllantirishda o‘ziga xos mexanizmlar yuzasidan ma’lumot berildi.

Agentlik va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti o‘rtasida “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishga ko‘maklashish” loyihasining II fazasi ishga tushirildi.

Agentlik vakillarining bir qator xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlari amalga oshirildi.

Ushbu xizmat safarlarida **natijasida**:

xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston amaliyotiga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi;

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro hamjamiyatga yetkazildi;

korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi xalqaro reyting va indekslarda mamlakat o‘rnini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashuvchi idoralari bilan o‘zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Xalqaro reyting va indekslardagi natijalar

1. “Transparency International” korrupsiyani qabul qilish indeksi *(+14 pog‘ona)*

Barqaror o‘sishiga erishilgan *(2018 yilda 158 o‘rindan 2022 yilda 126 o‘ringacha).*

2. “Jahon odil sudlov loyihasi” xalqaro nohukumat tashkilotining huquq ustuvorligi indeksi *(+4 pog‘ona).*

Korrupsiyaning mavjud emasligi yo‘nalishida 0,47 ball bilan 66 o‘rinni egallagan.

3. “Trace Matrix” poraxo‘rlik matritsasi *(+16 pog‘ona).*

2021 yilda 59 ball bilan (1 balldan 100 ballgacha baholanadi, 1 ball – eng ijobiy) 147-o‘rindan 2022 yilda 58 ball bilan 131-o‘ringacha ko‘tarilgan.

4. “Open Data Inventory” (ODIN) Ochiq ma’lumotlar reytingida **70 ball** yig‘ib, jahon bo‘yicha **30-o‘rinni** (2022 yilda 40-o‘rinda), Markaziy Osiyoda esa 1-o‘rinni egalladi.

5. Global ma’lumotlar barometrining 2022-yil uchun hisobotida (The Global Data Barometer) reytingida O‘zbekiston **32 ball** to‘plab, dunyoda **58-o‘rinni** egalladi.

6. “Open Data Inception” ma’lumotiga ko‘ra, 2022-yil O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida ochiq ma’lumotlar manbalari soni bo‘yicha dunyoda **4-o‘rinni** egalladi.

VIII. NNT va Jamoatchilik bilan ishlash yo‘nalishida

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa Nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligini oshirish bo‘yicha tashkiliy-amaliy jihatdan ko‘mak berildi va korrupsiyaga qarshi kurashishda ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan **10 ga yaqin** seminar-trening tadbirlarida **1000 dan ortiq** nodavlat sektor, OAVlar vakillari, jurnalist, blogerlar va shaxslarning sohaga oid bilim va ko‘nikmalari oshirildi. Jumladan,

2023 yilning 11-12-iyul kunlari Agentlik, “Mintaqaviy muloqot” (Sloveniya) xalqaro nodavlat tashkilotining O‘zbekistondagi filiali, “Pioner” korrupsiyani o‘rganish bo‘yicha tadqiqot instituti (AQSH) hamkorligida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida jurnalistlar ko‘nikma va malakasini oshirish maqsadida **“Korrupsiya va korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni yoritishda jurnalistik surishtiruvlarning roli”** mavzusida ikki kunlik seminar-trening tashkil etildi.

11-12 sentabr kunlari jurnalist va blogerlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik faollari, davlat idora va tashkilotlari matbuot kotiblari uchun AQShning “Boston Globe” gazetasi muharriri Rashel Koen ishtirokida treninglar tashkil etildi.

Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish va ularning korrupsiya to‘g‘risidagi bilimlarini oshirish maqsadida **10 dan ortiq** tadbirlar tashkil etildi.

Misol uchun, talaba yoshlarga korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatishga qaratilgan **YouthLed** loyiha doirasida barcha oliy ta’lim muassasalarining **1-3 kurs talabalari** va sohaga qiziqqan o‘qituvchi-professorlari uchun 5 ta onlayn seminar trening tashkil etildi.

Shuningdek, hamkor tashkilotlar bilan birgalikda **2 ta** chora-tadbirlar rejasi *(Yoshlarni odam savdosi, korrupsiya, turli zararli yot g‘oyalar va oqimlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish bo‘yicha va Yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasizlik hissini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejalari)* ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Mazkur rejalar ijrosi doirasida **9,4 mingdan** ortiq **mahallalarda 280,2 mingdan** ortiq yoshlarning ishtirokida **6 371 marta** trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi.

Agentlik, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda tayyorlangan **“Aksilkorrupsiya alifbosi”** nomli komiksli flayerlar ishlab chiqilib, sohaga doir **32 ta** turkum videoroliklar tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlaridagi monitorlariga joylashtirildi.

Bundan tashqari, “Korrupsiya yo‘q deylik” va “Yoshlar korrupsiyaga qarshi” shiorlari ostida **aksiya va fleshmoblar**, “Korrupsiya va korrupsiyaviy holatlar haqida yoshlarimiz qanday fikrda?” nomli **so‘rovnomalar,** insholar tanlovi, aholi va yoshlar ishtirokida **“Aksilkorrupsiyaviy muloqot”**lar, sportning “Street Workout”, “Futbol”, “Yengil atletika” turlari bo‘yicha musobaqalar tashkil qilindi.

Agentlik huzurida **Ekspertlar guruhi** faoliyati yo‘lga qo‘yilib, uning 2023-2024 – yillarga mo‘ljallangan ish rejasi qabul qilindi. Mazkur Reja doirasida Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan yoki u tomonidan xulosa berilishi kerak bo‘lgan **10 ga yaqin** normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarida yuzasidan ekspertlik fikr-mulohaza va takliflar olindi.

Agentlik huzuridagi Jamoatchilik kengashning **3 ta** yig‘ilishi tashkil etilib, kengash a’zolari tarkibi kengaytirildi

Jamoatchilik kengashi tomonidan quyidagi sohalar bo‘yicha hisobotlar eshitildi:

- “Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasining ijro etilishi: mavjud muammo va rejalar” to‘g‘risida;

- Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi natijalari bo‘yicha.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashining shifokorlarni rag‘batlantirish masalasiga munosabati tayyorlandi va Xalqaro donorlar uchun Jamoatchilik kengashining 2021-2022-yillarda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumotnoma taqdim etildi.

Milliy va hududiy kengashlar bilan hamkorliksh yo‘nalishida:

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi faoliyati muvofiqlashtirib borildi va Milliy kengashning **3 ta** yig‘ilishi tashkil etildi.

Milliy kengash yig‘ilishlarida davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari ko‘rib chiqilib, reyting baholash natijalariga ko‘ra **“qoniqarsiz”** baholangan tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitildi.

Bundan tashqari, Yig‘ilish bayoni bilan Milliy kengashning **Ish rejalari,** fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini oshirishga qaratilgan **Chora-tadbir rejalari,** Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O‘zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish bo‘yicha **“Yo‘l xaritasi”**, Suv xo‘jaligi hamda Yoqilg‘i energetika sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha **Chora-tadbir dasturlari** tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining faoliyatini reyting baholash metodikasiga asosan **14 ta** hududning 2022 yildagi faoliyati baholandi va reyting baholash natijalari Milliy kengashga taqdim etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari a’zolarining sohadagi malakasini oshirish maqsadida **11 marotaba** masofaviy seminarlar tashkil etildi.

Agentlik tomonidan **Buxoro, Toshkent, Navoiy, Surxondaryo, Xorazm** viloyatlari va **Toshkent** shahar **hududiy kengashlarining yig‘ilishlari** tashkil etilib, unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hududiy davlat organlari rahbarlarining axborotlari eshitildi.

IX. Aholi va davlat xizmatchilarining bilimini oshirish, shuningdek huquqiy targ‘ibot yo‘nalishida

2023 yil davomida **29 923 nafar** davlat xizmatchilari **«halollik vaksinasi» tamoyili** asosida muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha maxsus o‘qitilishi ta’minlandi.

“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan **Aksilkorrupsiya haftaligi** doirasida **22 ta** davlat organlari va tashkilotlari **“Ochiq eshiklar kuni”** tadbirlari tashkil etildi.

“Korrupsiya hech kimni chetlab o‘tmaydi”, “O‘zbekistonda korrupsiyani yengish mumkinmi?”, “Korrupsiyaga imkon bermang” kabi mavzularda **9 ta** videorolik tayyorlandi.

Vazirlik va idoralarda tashkil etilgan **90 ta seminar, davra suxbati va uchrashuvlarda** Agentlik xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi ma’ruzalar bilan ishtirok etdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar bilan aholini xabardor qilib borish maqsadida mahalliy va xorijiy OAV, ijtimoiy tarmoqlarda **1 200 dan ortiq chiqishlar** qilindi.

Jumladan, Agentlikning rasmiy veb-sayti - anticorruption.uzda **273 ta,** telegram tarmog‘idagi rasmiy sahifasiga **360 ta** materiallar joylashtirildi, teleradiokanallarda **115 ta** reportaj, intervyu va suhbatlar efirga uzatildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida Mahalliy va xorijiy nashrlarda **17 ta** maqola e’lon qilindi.

Korrupsiya holatlari bilan bog‘liq ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan tanqidiy materiallar yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazilib, **14 marotaba Agentlikning rasmiy munosabati** bildirildi.

Davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda davlat xizmatchilari va aholiga korrupsiya va uning oqibatlari to‘g‘risida **10 dan ortiq** ijtimoiy roliklar tayyorlanib, OAVlari va davlat organlarining rasmiy sahifalarida yoritildi.